KIBERSPORTNING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA’SIRI VA MA’NAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH

Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi
Fag‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, University of Business and Science Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
ORCID:0009-0009-1240-3310.

Annotatsiya.
Mazkur maqolada kibersportning zamonaviy yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, kibersport muhitida ma’naviy immunitet va mafkuraviy barqarorlikni shakllantirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari yoritilib, yoshlarni axborot tahdidlari va zararli g‘oyalardan himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Kibersport, yoshlar, dunyoqarash, ma’naviy immunitet, mafkuraviy barqarorlik, raqamli jamiyat, qadriyatlar, axborot xavfsizligi, tarbiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil.*

KIRISH.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining deyarli barcha sohalari raqamlashtirilmoqda. Ushbu jarayon ta’lim, iqtisodiyot, madaniyat va sport sohalarida ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ana shunday zamonaviy hodisalardan biri kibersport bo‘lib, u bugungi kunda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kibersport nafaqat ko‘ngilochar faoliyat, balki intellektual salohiyat, tezkor fikrlash va strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ham e’tibor qozonmoqda. Raqamli jamiyat sharoitida yoshlar kundalik hayotining muhim qismi internet va virtual makon bilan bog‘liq. Kibersport esa ushbu makonda yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiruvchi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Turli onlayn o‘yinlar va musobaqalar yoshlarni jamoa bilan ishlashga, maqsad sari intilishga va murakkab vaziyatlarda tezkor yechim topishga o‘rgatadi. Ayniqsa, jamoaviy kibersport o‘yinlarida ishtirok etish kommunikativ madaniyatni rivojlantirib, o‘zaro hamkorlik, mas’uliyat va liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM.

Kibersportning yana bir muhim jihati shundaki, u yoshlarda raqamli savodxonlik va texnologik ko‘nikmalarni rivojlantiradi. “Zamonaviy kibersport platformalari bilan ishlash jarayonida yoshlar kompyuter texnologiyalari, internet xavfsizligi, axborot almashinuvi va raqamli vositalardan samarali foydalanish tajribasiga ega bo‘ladilar. Ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi”[1]. Chunki bugungi mehnat bozori raqamli texnologiyalarni puxta egallagan mutaxassislarga ehtiyoj mavjud. Kibersport yoshlarning global axborot makoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Turli mamlakatlardan bo‘lgan ishtirokchilar bilan muloqot qilish, xalqaro musobaqalarda qatnashish va yangi

madaniyatlar bilan tanishish natijasida yoshlarning dunyoqarashi kengayadi. Bu jarayon ularda tolerantlik, ochiqlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan kibersport zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kibersportning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim salbiy oqibatlari ham mavjud. “Virtual muhitda haddan tashqari ko‘p vaqt o‘tkazish yoshlarning real ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashishiga, jismoniy faollikning kamayishiga va ayrim hollarda o‘yinlarga qaramlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, internet makonida turli zararli axborotlar, buzg‘unchi g‘oyalar va axloqiy tahdidlarning mavjudligi yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimolini oshiradi”[2]. Shu sababli kibersport faoliyatini ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarda tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, kibersport raqamli jamiyatning yangi ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shakllanib, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, jamoaviylik va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Kibersportning tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ma’naviy immunitetni mustahkamlash va sog‘lom raqamli madaniyatni rivojlantirish orqali uning ijtimoiy foydasini yanada oshirish imkonini beradi. Demak, kibersport zamonaviy yoshlar hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning ta’sirini to‘g‘ri yo‘naltirish raqamli jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida inson hayotining ko‘plab jabhalari virtual makon bilan chambarchas bog‘lanib, ayniqsa, yoshlar hayotida internet texnologiyalari va raqamli platformalarning ahamiyati ortib, yangi ijtimoiy-madaniy hodisalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shunday hodisalardan biri kibersport bo‘lib, u nafaqat ko‘ngilochar faoliyat turi, balki yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, kibersport zamonaviy raqamli madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, yoshlarning fikrlash uslubi, hayotiy maqsadlari va qadriyatlar tizimining shakllanishida sezilarli rol o‘ynaydi.

“Kibersportning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri, avvalo, ularning axborotni qabul qilish va tahlil qilish usullarida namoyon bo‘ladi. Virtual o‘yinlar muhitida yoshlar tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni baholash va muammolarga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularda analitik fikrlash, strategik rejalashtirish va mantiqiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi”[3]. Natijada yoshlarning zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar haqidagi tasavvurlari kengayib, ular raqamli dunyoning faol ishtirokchisiga aylanadilar. Kibersport yoshlarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga undovchi va ularning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir.

Kibersport yoshlarning qadriyatlar tizimiga ham muayyan ta’sir ko‘rsatadi. Jamoaviy o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish uchun hamkorlik, o‘zaro hurmat, intizom va mas’uliyat kabi qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. “O‘yin jarayonida har bir ishtirokchi umumiy maqsadga erishish uchun o‘z vazifasini bajarishi zarur bo‘ladi. Bu esa yoshlarda jamoaviylik ruhini, hamjihatlik va o‘zaro yordam ko‘rsatish madaniyatini

rivojlantiradi”[4]. Kibersport musobaqalarida qatnashish raqobat muhitiga moslashish, g‘alaba va mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qilish, sabr-toqat va matonat kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy kibersport muhitining yana bir muhim jihati uning xalqaro xarakterga egaligidir. Turli mamlakatlardan bo‘lgan o‘yinchilar bilan muloqot qilish va hamkorlikda ishtirok etish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ular boshqa xalqlarning madaniyati, qadriyatlari va turmush tarzlari bilan tanishadilar. Bu esa tolerantlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa kibersport yoshlarning global dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy maydon vazifasini bajaradi.

Kibersportning qadriyatlar tizimiga ta’siri har doim ham ijobiy xarakterga ega emas. Ayrim hollarda virtual makondagi agressiv mazmundagi o‘yinlar, zo‘ravonlik elementlari yoki haddan tashqari raqobat muhiti yoshlarning axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, o‘yinlarda g‘alabaga erishishni mutlaq maqsad sifatida qabul qilish natijasida pragmatik va individualistik qarashlar kuchayishi ehtimoli mavjud. “Kibersport bilan haddan tashqari shug‘ullanish ayrim yoshlarda virtual olamni real hayotdan ustun qo‘yish tendensiyasini shakllantirishi ham mumkin”[5]. Natijada ular real ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashib, oila, ta’lim va jamiyat oldidagi mas’uliyatini yetarlicha anglamaslik xavfi paydo bo‘ladi. Kibersport faoliyatini ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish zarur hisoblanadi.

Bugungi yoshlar uchun innovatsion fikrlash, texnologik savodxonlik, tezkorlik, kreativlik va global muloqot kabi qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosga hurmat, vatanparvarlik va insoniylik kabi qadriyatlarni saqlab qolish ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Kibersportning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish aynan ana shu qadriyatlar muvozanatini ta’minlash bilan bog‘liq. “Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligi tobora ko‘proq raqamli makon ta’sirida shakllanib, internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual platformalar va kibersport muhitining kengayishi natijasida yoshlar hayotida yangi kommunikativ va madaniy makon vujudga keldi. Kibersport bugungi kunda oddiy o‘yin-kulgi vositasi bo‘lishdan chiqib, global miqyosdagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisaga aylandi”[6]. Shu sababli uning yoshlar ma’naviyati va mafkuraviy qarashlariga ta’sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kibersportning mafkuraviy barqarorlik va ma’naviy immunitetni mustahkamlashdagi imkoniyatlarini o‘rganish bugungi davrning dolzarb masalalaridan biridir.

Ma’naviy immunitet insonning turli zararli g‘oyalar, axborot xurujlari, yot mafkuraviy ta’sirlar va axloqiy buzilishlarga qarshi ichki ruhiy-ma’naviy himoya tizimini anglatadi. Mafkuraviy barqarorlik esa shaxsning o‘z e’tiqodi, qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasiga sodiq qolgan holda turli tashqi mafkuraviy bosimlarga bardosh bera olish qobiliyatidir. Raqamli jamiyat sharoitida aynan ushbu ikki omil yoshlarning barkamol rivojlanishi va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kibersport esa mazkur jarayonlarga ham salbiy, ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan murakkab ijtimoiy fenomen hisoblanadi.

Kibersportning mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashdagi eng muhim jihatlaridan biri yoshlarni maqsad sari intilish, intizom va mas’uliyat ruhida tarbiyalashidir. Har qanday professional kibersport faoliyati muntazam mashg‘ulotlar, qat’iyat, o‘z ustida ishlash va jamoaviy hamkorlikni talab qiladi. Ushbu jarayonlar yoshlarni o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishga, vaqtni samarali taqsimlashga va muvaffaqiyatga erishish uchun mehnat qilishga o‘rgatadi.

Kibersport yoshlarning tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ham ma’naviy immunitetni kuchaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy kibersport o‘yinlari murakkab strategiyalar, tezkor qaror qabul qilish va axborotni qisqa vaqt ichida tahlil qilishni talab etadi. Bunday faoliyat yoshlarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularda voqea-hodisalarni chuqur baholash va turli axborotlarni saralash ko‘nikmasini shakllantiradi. Axborot xurujlari kuchayib borayotgan bugungi davrda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlar turli yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ g‘oyalar va mafkuraviy tahdidlarga nisbatan nisbatan barqaror bo‘ladilar.

“Kibersportning xalqaro xarakteri ham mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Turli mamlakatlar vakillari bilan muloqot qilish, xalqaro musobaqalarda qatnashish va global hamjamiyat bilan integratsiyalashuv yoshlarda ochiq dunyoqarash, bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi”[7]. Bu esa turli millat va madaniyat vakillariga nisbatan hurmat hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlar o‘z milliy qadriyatlari va madaniy merosini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada global va milliy qadriyatlar o‘rtasida muvozanat yuzaga keladi.

Kibersport orqali ma’naviy immunitetni mustahkamlashda ta’lim muassasalari va oilaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Agar kibersport faoliyati ma’naviy-ma’rifiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirilsa, u yoshlar uchun foydali rivojlanish vositasiga aylanadi. Kibersport klublarida axborot madaniyati, internet etikasi, kibermadaniyat va milliy qadriyatlar bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish mumkin. Bu orqali yoshlar nafaqat texnologik bilimlarga, balki ma’naviy va axloqiy mezonlarga ham ega bo‘ladilar. “Kibersport musobaqalarida halollik, adolat va sport etikasi tamoyillarini targ‘ib qilish ham muhimdir. Har qanday musobaqada insofsizlik, firibgarlik yoki noqonuniy usullardan foydalanishga qarshi kurashish yoshlar ongida adolat va qonuniylikka hurmat hissini shakllantiradi”[8]. Bunday fazilatlar esa jamiyatda sog‘lom fuqarolik madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, kibersport orqali yoshlarni mas’uliyatli raqamli fuqarolik tamoyillari asosida tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Biroq kibersportning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanilmasa, u ma’naviy immunitet uchun ayrim xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ayrim o‘yinlarda zo‘ravonlik, agressiya yoki individual manfaatlarni mutlaqlashtirish elementlarining mavjudligi yoshlarning axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli yoshlar ishtirok etayotgan o‘yinlarning mazmunini nazorat qilish, milliy qadriyatlar va insonparvarlik tamoyillariga mos loyihalarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu jarayonda ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, kibersport yoshlarning ijtimoiylashuvi, ma’naviy kamoloti va mafkuraviy barqarorligini ta’minlashning zamonaviy vositalaridan biridir. U yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, jamoaviylik va hamkorlik madaniyatini shakllantirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda global axborot makonida ongli harakat qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kibersportni ma’naviy-ma’rifiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirish orqali uning ijobiy ta’sirini yanada kuchaytirish mumkin.

Kibersportning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri va ma’naviy immunitetni mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar

1. Kibersport faoliyatini ma’naviy-ma’rifiy tarbiya bilan integratsiyalash. Kibersport musobaqalari va to‘garaklari faoliyatiga ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni kiritish maqsadga muvofiq. Xususan, kibersport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar uchun milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, axborot madaniyati va internet etikasi mavzularida muntazam seminar-treninglar tashkil etish zarur. Bu yoshlarning nafaqat texnologik, balki ma’naviy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

2. Ta’lim muassasalarida “Raqamli madaniyat va kibersport etikasi” kurslarini joriy etish. Oliy va professional ta’lim muassasalarida kibersportning ijtimoiy, axloqiy va mafkuraviy jihatlarini o‘rgatuvchi maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish lozim. Mazkur kurslar yoshlarni virtual makondagi axborot tahdidlari, manipulyativ g‘oyalar va zararli kontentlarni tanib olish hamda ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishga o‘rgatadi.

3. Milliy qadriyatlarga asoslangan kibersport loyihalarini rivojlantirish. Yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish maqsadida milliy tarix, madaniyat, ajdodlar merosi va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi raqamli o‘yinlar hamda kibersport platformalarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu orqali yoshlarning milliy o‘zlikni anglash darajasi va mafkuraviy barqarorligi mustahkamlanadi.

4. Ota-onalar va pedagoglarning kibersport bo‘yicha raqamli savodxonligini oshirish. Yoshlarning kibersport faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish uchun ota-onalar va pedagoglar zamonaviy kibersport muhitining imkoniyatlari hamda xavf-xatarlaridan xabardor bo‘lishlari kerak. Shu maqsadda ular uchun maxsus treninglar, seminarlar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Bu yoshlarning virtual faoliyati ustidan samarali pedagogik nazoratni ta’minlaydi.

5. Kibersport orqali sog‘lom raqobat va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish. Kibersport musobaqalarida halollik, adolat, jamoaviylik va o‘zaro hurmat tamoyillarini targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Musobaqalar nizomlariga sport etikasi va mas’uliyatli raqamli fuqarolik me’yorlarini kiritish orqali yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat, qonunga hurmat va sog‘lom dunyoqarashni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kibersport zamonaviy raqamli jamiyatda yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. U yoshlarda strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, jamoaviy hamkorlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kibermakonda uchraydigan turli axborot tahdidlari, zararli g‘oyalar va salbiy axloqiy ta’sirlar ma’naviy immunitetni mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytiradi. Mazkur jarayonda oila, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va davlatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kibersportni milliy va umuminsoniy qadriyatlar

asosida rivojlantirish, yoshlarda tanqidiy tafakkur, axborot madaniyati va mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish orqali uning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin. Ma’naviy yetuk, raqamli savodxon va ijtimoiy mas’uliyatli yosh avlodni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Лемешкина, И. Г. Роль современных информационных технологий в формировании профессиональной компетентности студентов. // Молодой ученый. 2015. – № 3 (83). – С.800.

2. Aminovna X. D. Internetga qaram shaxsning ijtimoiy-psixologik portreti: nazariy asoslar //Modern education and development. – 2025. – Т. 26. – №. 1. – С. 263.

3. Qosimov Anvar. (2025). Kiber sport o‘yinlarining yoshlarga bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy ta’siri. / Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2025. 2(3). – B.377.

4. Анисимов О. С. Развивающие игры и игротехника. – Нижный-Новгород, 2021. – С.178.

5. Qadamova, S. D., Toshtemirov, R.A. (2023). Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta’siri. SCHOLAR, 2023. 1(34). – B.120.

6. Плешаков В.А. О киберсоциализации человека и ее организации на интернет-портале «Homo Cyberus» [Электронный ресурс] // Электронный научно-публицистический журнал «Homo Cyberus». 2016. № 1. – С.15.

7. Алмазова И.Г., Числова С.Н., Кондакова И.В., Зайцева Н.В., Гладышева М.С. Информационные технологии в развитии киберспорта как образовательный потенциал молодежи – Перспективы науки и образования, 2022. 58 (4). – B.580.

8. Ягодин, В.В. Спортивная этика: история и современные проблемы. – М.: “Просвещение”, 2006. –С.186.